

## **BO‘LAJAK PEDAGOGLAR UCHUN PEDAGOGIK MAHORATNING O‘RNI VA AHAMIYATI.**

**Sabirova Muxarramoy**

*Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi*

**To’xtasinova Xilolaxon Raxmatillo qizi**

**Mirzaxalimova Surayyoxon Xasan qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti Texnologik ta‘lim 3-bosqich talabalari*

**Annotatsiya:** Mazkur maqlada bòlajak pedagoglar uchun pedagogik mahoratning mazmun-mohiyati, uning ta‘lim jarayonida òrni va ahamiyati keng yoritiladi. Pedagogik mahorat tushunchasining asosiy tarkibiy qismlari - kasbiy bilim, pedagogik texnika, kommunikativ kònigmalar va metodik mahorat batafsil tahlil qilinadi. Shu bilan birga, bòlajak pedagoglarning òquv tarbiya jarayonida ijodiy yondashuvini rivojlantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish va ta‘lim sifatini oshirishda pedagogik mahoratning tutgan òrni asoslab beriladi.

Maqlada bòlajak pedagoglarda pedagogik mahoratni rivojlantirishning samarali yòllari - amaliyot orqali tajriba orttirish, refleksiya, innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarni qòllash kabi jihatlar yoritiladi.

Shuningdek, zamonaviy ta‘lim jarayonida pedagogik kompetensiyalar va kasbiy sifatlarni shakllantirishning dolzarbliji tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot bòlajak pedagoglar, amaliyotchi òqituvchilar va pedagogika sohasida izlanish olib borayotgan mutaxasislar uchun nazariy va amaliy qo‘llanma sifatida xizmat qiladi.

**Kalit sòzlar:** pedagogik mahorat, kasbiy bilim, refleksiya, tahlil, innovatsion yondashuv, pedagogik texnika, kommunikativ qobiliyatlar, didaktik qobiliyatlar.

### **KIRISH.**

Bugungi kunda ta'lim tizimidagi islohotlar pedagoglardan yuksak mahorat, innovatsion yondashuv va pedagogik texnologiyalarni samarali qöllashni talab qilmoqda. Ayniqsa bòlajak pedagoglarning pedagogik mahoratini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik mahorat nafaqat kasbiy bilim va kònigmalar, balki shaxsiy fazilatlar va psixologik tayyorgarlikning uyğunligi bilan namoyon bòladi.

Pedagogik faoliyat-jamiyat taraqqiyoti va inson ma'naviyatining shakllanishida muhim o'ren tutadigan kasblardan biridir. Bo'lajak pedagoglar uchun o'qituvchilik nafaqat kasb, balki san'at darajasiga yetishi lozim bo'lgan mahoratdir. Pedagogik mahorat o'qituvchining nafaqat bilim darjasasi, balki shaxsiy fazilatlari, kasbiy ko'nikmalari va pedagogik texnologiyalarni qo'llay bilishi bilan bog'liq.

### **Pedagogik mahorat tushunchasi.**

Pedagogik mahorat - bu òqituvchining òquvchilarga ta'lim-tarbiya berishdagi yuksak kasbiy qobiliyati va san'ati. U quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni öz ichiga oladi.

- Kasbiy bilimlar - pedagogika, psixologiya va metodika bøyicha chuqur bilimlar.
- Pedagogik texnika - nutq madaniyati, darslarni samarali tashkil etish va boshqarish.
- Didaktik qobiliyatlar - murakkab tushunchalarni oddiy va tushunarli tarzda tushuntira olish.
- Kommunikativ qobiliyatlar - òquvchilar bilan samarali muloqot olib borish.
- Tahlil va refleksiya - o'z faoliyatini baholash va öz kamchiliklarni bartaraf etish.

Bo'lajak pedagoglar uchun pedagogik mahoratning ahamiyati.

Bo'lajak pedagoglar pedagogik mahoratni egallash orqali ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning qiziqishlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bo'lajak pedagoglar uchun pedagogik mahorat quyidagi jihatlari bilan ahamiyatlidir:

## 1.Samarali ta‘lim jarayonini tashkil etish:

Pedagogik ahamiyatga ega bo‘lgan o‘qituvchi darslarni qiziqarli,tushunarli va samarali tashkil qila oladi.Bu esa bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

## 2.Shaxsiy yondashuv:

Har bir o‘quvchining qiziqishi,qobiliyati va individual xususiyatlarini inobatga olish orqali ularning potensialini yuzaga chiqaradi.

## 3.Muammolarni hal qilish qobiliyati:

Pedagogik mahorat muammoli vaziyatlarni to‘g‘ri baholash va samarali hal qilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

## 4.Kasbiy rivojlanish:

Yuksak pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchi doimiy ravishda o‘z ustida ishlaydi,yangi texnologiyalarni o‘rganadi va amaliyotda qo‘llaydi.

## **PEDAGOGIK MAHORAT FANINING ASOSIY TARKIBIY QISMLARI**

- Nutq malakasi va texnikasini mukammal o‘zlashtirish.
- Tushunarli, ta’sirchan fikr va his-tuyg‘ularni so‘zda aniq ifodalash.
- Mimik va pantomimik harakatlardan o‘z o‘rnida foydalanish.
- Ma’noli va ochiq chehrali nigoh bilan qarash.
- Hissiy psixik va tasodifiy holatlarda o‘z his-tuyg‘ularini jilovlay olish.
- Turli vaziyatlarda tarbiyachiga xos bo‘lgan ijodiy kayfiyatni bosh qarish.
- Kulgi va tabassumda samimiylikni e’tirof etish.
- O‘quvchilar bilan doimo yaxshi kayfiyat va rag‘batlantiruvchi munosabatda bo‘lish.
- Savodli va sof adabiy tilda so‘zlash.

- Aniq imo-ishoralarni o‘z o‘rnida ishlata olish.
- Ijodiy pedagogik qobiliyatini qo‘llay bilish.
- Yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari va portal tizimidan erkin foydalana olish.
- Muosharat odobiga doimo rioya qilish.
- Pedagogik mahoratning tashkil etuvchi komponentlar.
- O‘qituvchilik kasbiga sadoqat ,o‘z fanining o‘qitish metodikasini mukammal bilish,pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi,pedagogik texnikani o‘z o‘rnida qo‘llay bilishi.

Pedagogik mahoratni rivojlantirish yo‘llari.

- Amaliyat orqali tajriba orttirish:

Pedagogik amaliyat davomida bo‘lajak o‘qituvchilar real dars jarayonida ishtirok etib,nazariy bilimlarini mustahkamlaydi.

- Pedagogik treninglar va seminarlar:

Yangi metod va texnologiyalarni o‘rganish imkonini beradi.

- Refleksiya va tahlil:O‘z faoliyatini baholab,kamchiliklarini bartaraf etish orqali mahoratni oshirish mumkin.
- Innovatsion texnologiyalardan foydalanish:Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalarni qo‘llash samaradorlikni oshiradi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy komponentlardan iborat:

1.Pedagogik insonparvarlik talablariga bo‘ysunishi.

2.Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.

- 3.Pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish.
- 4.Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta’lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o‘qituvchilar mehnati faoliyatidir. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z pedagogik faoliyati jarayonida faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini bilishi lozim:

O‘qituvchining pedagogik faoliyati tarkibiy qismlari.

- Pedagogik faoliyatning maqsadi.
- Pedagogik faoliyatning obyekti va subyekti.
- Pedagogik faoliyatning vositasi.

## **XULOSA.**

Pedagogik mahorat-bo‘lajak pedagoglar uchun zarur bo‘lgan muhim jihatlardan biri bo‘lib,ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega.U nafaqat o‘quvchilarga sifatli ta‘lim berish,balki ularni har tomonlama rivojlantirish,mustaqil fikrlashga o‘rgatish va ularning kelajagini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.Shuning uchun har bir bo‘lajak pedagog pedagogik mahoratini rivojlantirishga jiddiy e‘tibor qaratishi lozim.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Xoliqov A.Pedagogik mahorat Darslik-T.: Iqtisod-moliya, 2011. -420 b.
- 2.Ziyomuhamedov B.pedagogik mahorat asoslari O’quv qo’llanma-T ; Tib kitob 2009-183 b
- 3.Azizzodjayeva N.N.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.O‘quv qo‘ll. T.:O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2006. -159 b.